

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**



TASDIQLAYMAN
Qarshi davlat universiteti

rektori


D.Nabiyev


” _____ 2023 y


**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA BAHOLASH
MEZONLARI
“O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI” (KO‘ZI OJIZLAR UCHUN)”**


Qarshi – 2023


Dastur Qarshi davlat universiteti O'quv -uslubiy kengashining 2023-yil
“ ___ ” dagi _____ sonli majlisida ko'rib chiqilgan va ma'qullangan.

Tuzuvchilar:

N.Shodmonov  QarshiDU Adabiyotshunoslik kafedrasini mudiri, f.f.d.

B.Bahriddinova  QarshiDU O'zbek tilshunosligi kafedrasini mudiri, professor

Taqrizchi:  G.Imomova Qarshi DU Adabiyotshunoslik kafedrasini dotsenti, f.f.d

 O.Begimov Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti o'zbek tili va adabiyoti kafedrasini mudiri f.f.d

Mazkur dastur ko‘zi o‘jiz va ko‘rish qobiliyati sust bo‘lgan abituriyentlar uchun tuzilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasidagi ixtisoslashtirilgan maktablar o‘quv dasturiga mos tarzda tuzilgan. O‘zbek tilining grammatik xususiyatlari, ifoda imkoniyatlari va o‘zbek adabiyotining asosiy tamoyillari, muallif va asarlari umumta‘lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limi darsliklarida yoritilgan. Til va jamiyat, fonetika, orfoepiya, orfografiya, grafika, leksikologiya, morfemika, so‘z yasalishi, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, stilistika kabi bo‘limlar hamda adabiyot, so‘z san‘ati, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, xalq og‘zaki ijodi, janrlari, uyg‘onish davri adabiyoti, yangi davr o‘zbek adabiyoti, ma‘rifatparvarlik adabiyoti, jadid adabiyoti, sho‘rolar davri adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti bo‘yicha berilgan mavzular o‘quvchi tafakkurini o‘stirishda, dunyoqarashini belgilashda ahamiyatlidir.

Fanning maqsadi va vazifalari

Ushbu dastur bo‘lajak mutaxassis-kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, til va adabiyot turkumidagi alohida fanlarning o‘ziga xos xususiyatlarini yoritishni ko‘zda tutadi.

Bunda abituriyentlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish; til va adabiyot masalalarini talqin qila olish ko‘nikma va malakalarini shakllantirish maqsadi qo‘yiladi.

Ushbu maqsadni amalga oshirishda o‘zbek tili grammatikasi asoslarini o‘zlashtirish, adabiyot fani doirasidagi mavzularni yozuvchi hayoti va ijodiga doir ma‘lumotlarni o‘rganish, badiiy san‘at turlarini bilish, tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish vazifalari ko‘zda tutilgan.

Abituriyentning bilimiga qo‘yiladigan talablar:

“O‘zbek tili va adabiyoti” (ko‘zi o‘jizlar uchun) kasbiy (ijodiy) imtihon dasturiga ko‘ra, o‘zbek tili va adabiyoti fanlarining har biriga talablar qo‘yiladi: O‘zbek tili fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

- adabiy tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik me‘yorlari;
- orfografiyaga, orfoepiyaning nazariy masalalari asosida og‘zaki va yozma nutq ko‘nikmalarini;
- lotin yozuvi asosidagi yangi o‘zbek alifbosi qoidalarini;
- tilshunoslikning har bir bo‘limlari bo‘yicha umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta‘lim dasturlariga yaqinlashtirilgan holdagi ma‘lumotlarni;
- grammatik tahlil qilish ko‘nikmasini bilishi kerak.

O'zbek adabiyoti bo'yicha abituriyent:

-o'zbek adabiyotining asosiy nazariy tamoyillari;adabiyot tarixida sezilarli iz qoldirgan mashhur adiblar hayoti;

- milliy adabiyot tarixidan o'rin olgan asarlar va ularning tahlili;

-zamonaviy adabiyotga tegishli ayrim ijodkorlar faoliyatidan xabardor bo'lishlari kerak.

Fanning mazmuni

O'zbek tili

Til va jamiyat. Tilning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'mi. Tilning aloqa-munosabat vositasi sifatidagi ahamiyati. Dunyo tillari. Til oilalari.

Fonetika. Nutq tovushlari va ularning tasnifi. "Fonema", "urg'u", "bo'g'in", "takt" tushunchalari. Fonetik o'zgarishlar: tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi.

Orfoepiya. Talaffuz me'yorlari. Orfoepiya me'yorlari asosidagi tovush o'zgarishlari: assimilyatsiya, dissimilyatsiya, metateza.

Orfografiya. Imlo qoidalari. Fonetik yozuv, morfologik yozuv, shakliy yozuv qoidalari.

Grafika. Tovush va harf munosabati. Yozuv tarixi. Lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi.

Leksikologiya. So'z va ma'no. Lug'aviy ma'no va grammatik ma'no. O'z ma'no va ko'chma ma'no. Bir ma'noli (monosemantik) va ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlar. So'z va leksema. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari: shakldoshlik, ma'nodoshlik, zid ma'nolilik, paronimlik hodisalari.

Tarixiylik jihatdan o'zbek tili leksikasi. Tarixiy so'zlar, arxaizmlar, neologizmlar.

O'zbek tilining lug'at boyligi. Qo'llanish doirasiga ko'ra o'zbek tili leksikasi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi o'rni. Hududiy chegaralangan so'zlar: lahja, sheva tushunchalari. Ijtimoiy chegaralangan so'zlar: argo va jargonlar. Termin (atama)lar. Terminologiya (atamashunoslik).

Lug'at boyligining ortib borish usullari: ichki manba va tashqi manba. Olinma so'zlar.

Barqaror birikmalar: maqol-matallar, iboralar, hikmatli so'zlar (aforizmlar).

Leksikografiya. Lug'at va uning turlari. Ensiklopedik lug'atlar. Filologik lug'atlar.

Morfemika. So'z tarkibi. O'zak morfema va affiksial morfema. Affiksial morfema (qo'shimchalar)ning vazifasiga ko'ra turlari: so'z yasovchi va shakl yasovchi (lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi) qo'shimchalar.

Grammatika: morfologiya va sintaksis. Morfologiya - so'z turkumlari,

grammatik shakl, grammatik ma'no haqidagi bohim sifatida.

So'z turkumlari. To'plam va tasnif. Mustaqil so'z turkumlari. Ot va uning morfologik xususiyatari. Otlarning lug'aviy shakllari: ko'plik, kichraytirish-erkalash shakllari. Otlarning munosabat shakllari: kelishik va egalik qo'shimchalari.

Sifat. Sifat darajalari. Asliy sifat va nisbiy sifat. Tub va yasama sifatlar.

Son. Miqdor son va tartib son. Hisob (o'lchov) so'zlari.

Olmosh. Olmoshning ma'no turlari. Kishilik olmoshlari. Ko'rsatish olmoshlari. O'zlik omoshi. So'roq olmoshlari. Belgilash-jamlash olmoshlari. Bo'lishsizlik olmoshlari. Gumon olmoshlari.

Ismlar. So'zlarni turkumlarga ajratish tarixi. Ot, sifat, son, olmosh, sifatdosh, harakat nomi, taqlid so'zlarning ismlik xususiyatlari. Ismlarning munosabat shakllari.

Fe'l. Fe'llarning ma'no turlari: harakat va holat fe'llari. Tuslanish. Fe'llarda zamon, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik tushunchalarining ifodalanishi. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'l nisbatlari. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi (harakat tarzi shakllari).

Ravish. Ravishning ma'no turlari. Ravishlarda kelishik va egalik shakllarining yaxlitlanib qolishi.

Yordamchi so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Undov so'zlar. Taqlid so'zlar. Modal so'zlar.

Sintaksis. So'z birikmasi. So'z birikmasining bog'lanish usullari: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. So'z birikmasi turlari: otli birikma va fe'lli birikma.

Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak gap, so'roq gap, buyruq gap, istak gap.

Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra tasnifi: his-hayajon (undov) gap va his-hayajonsiz gap.

Gapning modallikka (voqelikka munosabatiga) ko'ra tasnifi: tasdiq gap va inkor gap.

Gapning tuzilishiga ko'ra tasnifi: sodda gap va qo'shma gap.

Sodda gap sintaksisi. Gap bo'laklari: gapning bosh bo'laklari. Kesim: ot-kesim va fe'l-kesim. Murakkab ot-kesim. Bog'lama. Murakkab ot-kesim va ega o'rtasida trening ishlatilishi. Ega. Ega ishtirokiga ko'ra sodda gap tasnifi: egasi mavjud gaplar va egasi mavjud bo'lmagan gaplar. Egasi yashiringan gaplar. Egasi (shaxsi) topilmas gaplar. So'z-gap. Atov gap.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi.

Gapning uyushiq bo'laklari: uyushiq kesim, uyushiq ega, uyushiq hol, uyushiq to'ldiruvchi, uyushiq aniqlovchi. Uyushmagan aniqlovchi.

Gapning ajratilgan bo'laklari. Ajratilgan kesim, ega, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi.

Gap bo‘laklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan bolaklar: kiritma, kiritma gap, undalma.

Sodda yig‘iq gap. Sodda yoyiq gap. To‘liq gap va to‘liqsiz gap. Gap bo‘laklari tartibi. Inversiya.

Qo‘shma gap sintaksisi. Qo‘shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lovchi vositalar.

Qo‘shma gapning tarkibidagi sodda gaplarni bog‘lovchi vositalar xarakteriga ko‘ra turlari: bog‘larga qo‘shma gap, ergashgan qo‘shma gap, bog‘lovchisiz qo‘shma gap. Havola bo‘lakli gap. Qo‘shma gapning sodda gap bilan ma‘nodoshligi. Uslubiyat. Nutq uslublari: so‘zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, ommabop uslub, badiiy uslub.

Punktuatsiya. Tinish belgilarining qo‘llanishi.

O‘zbek adabiyoti

Qadimgi adabiy yodgorliklar. “Avesto”da adabiy manba sifatida. Urxun-Enasoy obidalari. “Devonu lug‘atit-turk”dagi adabiy namunalar. “Qutadg‘u bilig” dostonining obrazlar tizimi. “Hibatul-haqoyiq” asarining ma‘rifiy asoslari. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi va hikmat janri taraqqiyoti.

Temuriylar davri adabiyoti. Temuriylar davri adabiyotining taraqqiyot omillari. Gadoiy, Atoyi, Lutfiy va Sakkokiy she‘riyati.

Navoiy tarjimaiy holining adabiy manbalari. “Xazoyinul-maoniy”ning tarkibi. Navoiy ijodida lirik janrlar. “Xamsa”chilik an‘analari va Navoiy “Xamsa”si.

XVI-XIX asrlar adabiyoti. Xonliklar davri adabiyotining xususiyatlari. Bobur badiiy merosi, “Boburnoma”. Ilmiy merosi. Qul Ubaydiy ijodi. Mashrab shariyati. “Mabdai nur” muallifligi masalalari. Huvaydo g‘azallari poetikasi. Amir Umarxon adabiy muhiti ijodkorlari. Nodira ijodi. Ogahiy she‘riyatining obrazlar tizimi. Muqimiy va Furqat ijodi. Avaz O‘tar asarlari.

Yangi o‘zbek (milliy uyg‘onish) adabiyoti. Jadid tushunchasi, maqsad, vazifalari, o‘rganilishi, muammolari. Milliy matbuot. Milliy teatr, badiiy adabiyot, ma‘rifiy-ijtimoiy she‘riyat (A.Avloniy, Hamza, So‘fizoda, Siddiqiy-Ajziy, A.Qodiriy, Sidqiy Xondayliqiy) va publitsistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, A.Avloniy, Sayidahmad Vasliy, Hoji Muin).

Yangi o‘zbek adabiyoti. Sho‘ro davri adabiyotining o‘ziga xos xususiyatlari. G‘.G‘ulom, Oybek, H.Olimjon, A.Qahhor, Zulfiya, M.Shayxzoda, Mirtemir kabi shoir va yozuvchilar shu davr adabiyotining xos namoyondalari sifatida.

Istiqlol davri o‘zbek adabiyoti. Mustaqillik tuyg‘usi o‘zbek adabiyotida milliy o‘zlikni anglashga tashnalik sifatida namoyon bo‘lganligi. Istiqlol davri o‘zbek adabiyotiga Said Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzaev, E.Vohidov, A.Oripov, O.Matjon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Erkin A‘zam, Xurshid Do‘stmuhammad, Nazar Eshonqul va boshqa ijodkorlar

qo'shgan hissalarini xususida. Ular ijodidagi o'ziga xos xususiyatlar va yetakchi tamoyillar.

KASBIY (IJODIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH M E Z O N I

Ijodiy imtihon ko'p balli yagona baholash tizimi bo'yicha baholanadi.

Ijodiy imtihon: baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abituriyentning javobi 5 ("a'lo")ga baholanishi uchun:

■ mavzuning mohiyatini to'g'ri anglagan bolishi, ijodiy mulohazalar asosida yoritishi;

■ mavzuni mustaqil fikr asosida bayon qilishi;

■ fakt va misollardan o'rinli foydalanib, to'g'ri xulosalar chiqara olishi;

■ mavzu doirasidagi barcha masalalarni qamrab olishi;

■ talab darajasidagi filologik va ijtimoiy-siyosiy bilimga ega bolishi;

■ nutqi ravon bo'lib, fikrini adabiy tilda ta'sirchan ifodalay bilishi zarur.

2. Abituriyentning javobi 4 ("yaxshi")ga baholanishi uchun:

■ mavzu mohiyatini atroflicha, ijodiy yondashuv asosida yoritishi;

■ mustaqil fikrlashga intilishi;

■ fikrlarini izchil ifodalash qobiliyatiga ega bo'lishi;

■ nutqida mantiqiylik, ravonlik, obrazlilik ko'zga tashlanib turishi;

■ manbalardan, fakt va misollardan o'rinli foydalana olishi;

■ filologik va ijtimoiy-siyosiy savodxonligi yetarli bo'lishi;

■ fikrini adabiy tilda to'g'ri, maqsadga muvofiq ifodalay bilishi lozim.

3. Abituriyentning javobi 3 ("qoniqarli")ga baholanishi uchun:

■ mavzu mohiyatini chuqurroq ochib berishi, notiqlik qobiliyati sezilib turishi;

■ so'z san'ati va. nutq madaniyati haqidagi tasavvuri qoniqarli darajada bo'lishi;

■ so'zni bir qadar nozikroq idrok eta bilishi, fikrni izchil ifodalashga intilishi;

■ fikr bayoni va uslubi ravon, mantiqiy bo'lishi;

■ fakt va misollardan to'g'ri foydalanib, to'g'ri xulosalar chiqara olishi;

■ fikrini adabiy tilda ifodalashga intilishi kerak.

4. Abituriyentning javobi quyidagi hollarda 2 ("qoniqarsiz")ga baholanadi:

■ mavzu mohiyati yetarli darajada ochilmasa;

■ tilshunoslik bo'limlari va adabiyot haqida muayyan tasavvurga ega bolmasa;

■ fikrni ifodalashda g'alizlik uchrashi;

■ abituriyentning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki bo'lsa;

■ tilshunoslik bo‘limlari va adabiyot haqida muayyan tasavvurga ega bolmasa;

- fikrni ifodalashda g‘alizlik uchrashi;
- abituriyentning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki bo‘lsa;
- fikrlash doirasi tor bo‘lsa;
- fikr bayoni izchil bo‘lmasa;
- nutqida ravonlik, mantiqiy muvofiqlik kuzatilmasa.

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2023-2024 o‘quv yili komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Imtihon komissiyasi tarkibi, odatda, uch nafar a‘zodan kam bo‘lmagan holda tashkil etiladi.

Ijodiy imtihon natijalari o‘tkazilgan kundan kechiktirilmagan holda e‘lon qilinadi. Imtihon natijalaridan norizo abituriyentlarning murojaatlarini ko‘rib chiqish bo‘yicha appel- .yatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Appelyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Appelyatsiya komissiyasi ijodiy (kasbiy) imtihon komissiyasi faoliyatini yo‘lga qo‘yilishi bilan bir paytda 2023-2024 o‘quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi. Abituriyent ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari e‘lon qilingan kundan boshlab, 24(yigirma to‘rt)soat ichida appelyatsiya komissiyasiga murojaat etishi shart. Aks holda, ko‘rsatilgan muddatdan o‘tib qilingan murojaat inobatga olinmaydi.

Appelyatsiya komissiyasi abituriyentlar tomonidan bildirilgan og‘zaki va yozma murojaa larga javob beradi.

Abituriyent tomonidan bildirilgan murojaatni ko‘rib chiqadi va 24(yigirma to‘rt) soat ichida xulosalarni ma‘lum qiladi.

Qabul komissiyasi mas‘ui kotibi:



D.Xudoyberdiyev